

SHARQ VA G'ARB AXLOQIY-DINIY TAFAKKURIDA ADOLAT TALQINLARI

Oqbutayev Botir Xaydarovich

TerDU o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10569138>

Annotatsiya. Ushbu maqolada adolat g'oyasining Sharq va Garb xalqlari axloqiy-diniy va badiiy tafakkuridagi o'rni, ahamiyati tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: adolat, tenglik, ezgulik, Sharq va G'arb tafakkuri, zardushtiylik, buddaviylik, isaviylik, yahudiylik, qadimgi Rim va yunon ma'budlari, islom va tasavvuf.

INTERPRETATIONS OF JUSTICE IN EASTERN AND WESTERN MORAL AND RELIGIOUS THINKING

Abstract. This article analyzes the role and importance of the idea of justice in the moral, religious and artistic thinking of Eastern and Western peoples.

Key words: justice, equality, goodness, Eastern and Western thinking, Zoroastrianism, Buddhism, Judaism, Judaism, ancient Roman and Greek gods, Islam and Sufism.

ИНТЕРПРЕТАЦИИ СПРАВЕДЛИВОСТИ В ВОСТОЧНОЙ И ЗАПАДНОЙ МОРАЛЬНОЙ И РЕЛИГИОЗНОЙ МЫСЛИ

Аннотация. В данной статье анализируется роль и значение идеи справедливости в нравственном, религиозном и художественном мышлении народов Востока и Запада.

Ключевые слова: справедливость, равенство, добро, восточное и западное мышление, зороастризм, буддизм, иудаизм, иудаизм, древнеримские и греческие боги, ислам и суфизм.

Jamiyatda mavjud yaxshilik va yomonlik, odillik va zolimlik kabi tushunchalar ijtimoiy hayotda to'la o'z ifodasini topadi. Shu bois, insoniyat azaldan, ya'ni, yaralganidan buyon bu tushunchalar to'g'risida fikr yuritadi. Bashariyat qadimdan xoh Sharqda, xoh G'arbda bo'lsin adolatni o'z hayotlarining asosi deb bilgan va hukmdori odil davlatda hamda adolat, tenglik ustuvor bo'lgan jamiyatda yashashni orzu qilgan. Shubhasiz, ular o'zlari yashayotgan muhitning, davrning tafakkur darajasiga ko'ra yaxshilik va yomonlik, odillik va zolimlik kabi tushunchalarni his qilishgan, anglab yetishgan.

Insoniyatning adolat va odil hukmdor haqidagi qarashlarining paydo bo'lishini Yaqin va O'rta Sharq, xususan Eron, Ozarbayjon, Xuroson va Movaraunnahr xalqlari adabiyoti misolida qaraydigan bo'lsak, bu hududda yashovchi xalqlar adabiyotida bu g'oya-zardushtiylik, yahudiylik,

buddaviylik, isaviylik, moniylik, mazdakiylik va islom kabi diniy hamda tasavvuf singari falsafiy ta'limotlar asosida shakllanganligini ko'ramiz.

Eramizdan avvalgi VI-V asrlarda Markaziy Osiyoda, aniqrog'i Xorazmda birinchi yakkaxudolik dini sifatida vujudga kelgan zardushtiylik dinining asosini-ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal axloqiy uchlik tushunchasi tashkil etib, bu din olam ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi doimiy kurashdan iborat bo'lib, oxirida yaxshilik g'alaba qozonadi degan g'oyaga asoslangan. Bu ta'limotga ko'ra tabiat va jamiyat mana shu ikki kuch-ezgulik va yovuzlikdan tashkil topib, ulardagi barcha ezgulikka Axura Mazda, yovuzliklarga esa Anhra Manu boshchilik qiladi. Aniqroq aytganda, dunyo yaxshilik va yomonlik, adolat va zulm asosiga qurilgan bo'lib, pirovardida yaxshilik, adolat tomonidagilar g'olib bo'ladilar.

Shuning uchun kishilar Axura Mazda izidan borib ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal axloqiy uchlik tushunchasi asosida o'zida ma'naviy barkamollikni shakllantirmog'i lozim. Chunki, kishilar vafotidan so'ng ularning bu dunyoda qilgan savob va gunoh ishlari adolat ma'budi Mitra va uning yordamchilari Rashnu va Sraosha tomonidan tarozida o'lchanib, imtihon qilinadi, Axura Mazda yo'lidan borganlar Qiyomat kunida Chinvot ko'prigidan sog' omon o'tib, abadiy farovon hayotga erishadilar. Anhra Manu yo'lidan borganlar esa, zolim va yolg'onchiga ergashganlari holda bu dunyoning rohat-farog'atlari deb, u dunyoda erishishi mumkin bo'lgan mangu farovon hayotdan bebahra qoladilar. Qiyomat bo'lganida ular uchun Chinvot ko'prigi ingichkalashib qoladi, oqibatda mangu do'zax azoblariga giriftor bo'lishadi. Ko'rinadiki, bunda kishilar uchun axloqiy etuklik sari boshlovchi Axura Mazda yo'li najotbaxsh va to'g'ri yo'ldir. Demak, bu yo'lda borayotgan kishining xulqi va xatti-harakati - yaxshilik va odillik, Anhra Manu izidan borayotganlarning xulqi va xatti-harakatlari esa - yomonlik, zulmdan iborat.

Zardushtiylik dinida mantiqan dunyoni ezgu va yovuz kuchlar o'rtasidagi kurashdan iborat deb tushunish hamda jamiyatda kishilar xulqi va xatti-harakatini yaxshi va yomon tushunchalari orqali anglash, shu asosida yaxshilikka-yaxshilik, yomonlikka-yomonlik bilan javob berish eng to'g'ri yo'l, ya'ni, adolatlilik deb hisoblangan. Shuningdek, "Avesto"da "Oyoqlaring, qo'llaring va es-hushingni ezgu amal, adolat va to'g'rilikka yo'lla; yomon ishlardan bedodlik va egrilikdan tiyil!" deya kishilar yaxshilikka, odillikka da'vat qilinadi, yovuzlik, zulm qoralanadi.¹

Qadimgi rimliklar adolat xudosi deb Femidaga e'tiqod qilishgan. Ularning tasavvurida Femida ikki ko'zi bog'langan, qo'lida tarozi ushlagan holda gavdalangan. Femida qo'lidagi tarozida

¹ "Avesto" Vispirad 15-bo'lim. A.Mahkam tarjimasini. T.: 2001. "Sharq" B. 290.

moddiy ashyolar emas, adolatga aloqador narsalar (gunoh va savob, yaxshilik va yomonlik kabi) o'lchangan. Adolat xudosi Femidaning ko'zi bog'langan holda tasavvur qilinishing asosiy boisi, kishilar nazarida shu holdagina tarozi pallalaridagi narsalar to'g'ri, odilona o'lchanadi. Demak, ko'zi bog'liqlik - xolislik, tenglik va odillikni anglatgan.

Shu paytga qadar Sharq mutafakkirlari (Farobiy, Beruniy, Ibn Sino) dunyoqarashining shakllanishida yunon falsafasi, jumladan, Suqrot (mil.av. 469-399), Aflotun (mil.av. 428-347), Arastu (mil.av. 384-322) qarashlarining ta'siri haqida ko'plab fikrlar bildirilgan. Ammo yunon mutafakkirlari dunyoqarashiga zardushtiylik diniy ta'limotining ta'siri haqida kam tadqiqotlar yaratilgan. Bu borada olim F.Sulaymonova fikrlari aniq va batafsil: "Eradan avvalgi VI asrga kelib yunonlar eroniylar bilan yaqindan aloqada bo'la boshlagach, Markaziy Osiyo va Eron xalqlari dini, Zardusht ta'limoti ioniyalik donishmadlarga o'z ta'sirini o'tkaza boshlaydi. Zardushtiylik dini va uning tarixini jiddiy o'rgangan holda to'rt tomlik tadqiqot yaratgan ingliz olimasi Meri Boysning aytishicha "ta'sir faqat bir tomonlama, zardushtiylik tomonidan bo'lgan". Ioniya tarixining eradan avvalgi VII-VI asrlardagi iqtisodiy-ijtimoiy holati o'zidan yuqori bo'lgan madaniyat ta'sirini qabul qilish darajasiga ko'tarildi va Sharq ta'siri esa potensial kuchlar taraqqiyotiga turtki bo'ldi. Natijada, Ioniya, aniqrog'i Miletta shakllanib, rivoj etgan ibtidoiy-materialistik ilmiy-falsafiy ta'limot tashkil topdi. Milet maktabi bundan keyin Grek tafakkuri rivojiga, ayniqsa Demokrit, Platon, Aristotel, Epikur kabi faylasuflar ta'limotiga katta ta'sir etdi va yunon tabiiy fanlar rivojini aniqlab berdi. Shu ma'noda aytishimiz mumkinki, agar qadimgi yunon fani, falsafasi keyingi davr Sharq va Yevropa ilm-fan va falsafasiga asos bo'lgan bo'lsa, demak bunda zardushtiylik ta'limotining xizmatini inkor etib bo'lmaydi"².

Nazarimizda, zardushtiylik dinidagi dunyoning ikki kuch kurashidan iborat ekanligi haqidagi qarashlar Aflotun va Arastu dunyoqarashida o'ziga xos tarzda tajassum topgan: "Platon izdoshlari o'rtasida ham zardushtiylik ta'limoti keng tarqalgan bo'lib, xatto Platon shogirdlari ustoz ta'limotini mug'lar bilan bog'lashga zardushtiylikdan keltirib chiqarishga uringanlar. Aristotel Platon akademiyasida ta'lim olib yurgan vaqtlaridayoq uning Sharq madaniyati, Sharq donishmandlariga hurmati va qiziqishi katta edi. Aristotel o'zidan avval o'tgan olim faylasuflar ijodini o'rganar ekan, "Mug'lar va ularning ta'limotiga" ham alohida diqqat bilan qaragan. Afsuski, zardushtiylik ta'limotiga bag'ishlangan, "Mug'lar" risolasi bizgacha saqlanib yetmagan. Laertlik Diogen Aristotelning zardushtiylikka munosabati haqida "Aristotel o'zining falsafa haqida

² Sulaymonova F. "Sharq va G'arb". "O'zbekiston". - T.: 1997. B. 23. 35-36.

dastlabki kitobida Mug'lar hatto misrliklardan ham qadimiylar, ularda ikki dastlabki prinsip bor - ezgulik va yovuzlik, biri Zevs - Oromazd, ikkinchisi Hades - Aremanus” degan so'zlarni aytgan”³.

Shuningdek, Aflotun fikricha ham jamiyat yaxshi va yomon kishilar toifasidan iborat, davlatni yuksaltirish uchun esa yaxshilikka yaxshilik, yomonlikka yomonlik bilan javob berish - adolatpeshalik qilmoq joiz: “Boshqa odamlar tomonidan sodir etiladigan og'ir, tuzalishi qiyin va hatto umuman bedavo adolatsizliklardan qutulishning faqat bitta vositasi bor: bu ular bilan kurashish, daf etish, g'alaba qozonish va ularni beayov jazolamoqdir.... Adolatsiz va yomonlik egasi bo'lgan insonga achinmoq lozim. Ammo, tuzalishi mumkin bo'lgan insonga achinmoq o'rinlidir. Aniq yomon va yovuz pand nasihatlarga quloq solmaydigan odamga nisbatan g'azabga erk bermoq darkor. Biz shuning uchun, yaxshi odam har bir ayrim holda ham qahrli (g'azabnok), ham hilmlik bo'lishi zarur, dedik”⁴.

VIII-XII asrlarda Yaqin va O'rta Sharq, jumladan Eron, Ozarbayjon, Xuroson va Movaraunnahr xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va madaniy hayotiga islom dinining kirib kelishi va hukmron dinga aylanishi bu xalqlar tafakkur tarzining islomiy tushunchalar asosida shakllanishiga sabab bo'ldi. Islom dinining asosi bo'lgan “Qur'on”, hadislar va shariat qonun-qoidalarida adolatpeshalik g'oyalari ulug'lanadi, odillik har bir mo'min musulmonning eng muhim fazilati ekanligi ta'kidlanadi. “Qur'on”da “Alloh zolimlarni sevmagay”. (“Oli Imron” surasi. 67-bet), “Alloh uchun (to'g'rilikda) sobit turuvchi, odillik bilan guvohlik beruvchi bo'lingizlar; biror qavm (kishilari)ni yoqtirmaslik sizlarni adolatsizlik qilishga undamasin! Odil bo'lingiz! Zero, u (adolat) taqvoga yaqinroqdir”. (“Moida” surasi 108-bet), “Albatta, Alloh adolatga, ezgu ishlarga va qarindoshga yaxshilik qilishga buyurar hamda buzuvchilik, yovuz ishlar va zulmdan qaytarur”, (“Nahl” surasi 277-bet) hamda “Adolat qilinglar! Zero, Alloh adolatlilarni sevar” (“Hujurot” surasi 516-bet) deyiladi⁵.

Hadislarda adolat haqidagi quyidagi so'zlarni o'qish mumkin: “Ibn Umar raziyallohu anhu rivoyat qiladilar: “Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: “Zulm (ya'ni birovning haqini yeyish, pulning qaytimini bermaslik yoxud kam berish yoki molning vazni, bo'yi hamda enidan urib qolish kabi va boshqa tur jinoyatlar zulm sohibining boshiga qiyomat kuni zulmat (balo) bo'lur!”, - dedilar”, Alloh taoloning qavli: “Ey mo'minlar, adolat yo'lidan sira toymas va o'z'laringiz, otalaringiz hamda qarindosh urug'laringiz zarariga bo'lsada, Alloh taolo uchun (to'g'ri) guvohlik

³ Sulaymonova F. “Sharq va G'arb”. “O'zbekiston”. - T.: 1997. B 34-35.

⁴ Aflotun. “Qonunlar”. “Yangi asr avlodi”. - T.: 2002. B.139-140.

⁵ “Qur'oni Karim” ma'nolarining tarjimai. Tarjimon Abdulaziz Mansur. Toshkent Islom Universiteti nashriyoti. T.: 2001.

berguvchi bo'lingizlar!”. Shuningdek, hadislarda “Bir soatlik adolat - oltmish soat ibodatdan afzal”, “Haqiqatda odil hokimlar Xudo huzurida nurdin bo'lgan minbarlar ustuda bo'lurlar”,⁶ - deyilgan.

Atlantika okeanidan Tyan-Shangacha, Kavkazdan Hind okeanigacha bo'lgan hududda arab xalifaligining markazlashgan davlat sifatida vujudga kelishi, bu hududda joylashgan shaharlarning gullab yashnashiga va yangidan yangi shaharlar hamda savdo markazlarining paydo bo'lishiga omil bo'ldi. Natijada, Balx, Hamadon, Seiston, Ganja, Mozandaron, Jurjon, Ray, Nishopur, Tus, Marv, Buxoro, Samarqand, Urganch, Xiva, Nisa, Termiz, Shosh, O'tror, Farob, Balosog'un, Qoshg'ar kabi shaharlarda iqtisodiy ishlab chiqarish munosabatlari rivojlandi. Dunyoviy madaniyat, ilm-fan, san'at taraqqiy etdi. Pirovardida, bu hududda o'ziga xos tarzda “Yagona din, til, madaniyat, turmush tarzi, tafakkur usuli, umuminsoniy, axloqiy qadriyatlar juda keng dunyoqarashga ega bo'lgan jonli va harakatchan arab-musulmon jamiyati vujudga keldi”.⁷

Bu “arab-musulmon jamiyati”ning shakllanishida zardushtiylik, yahudiylik, isaviylik, buddaviylik kabi diniy e'tiqodlar va qadimgi yunon ilm fani ta'sirini alohida ta'kidlash lozim. Negaki, bu davrda ular xalifalik tomonidan himoya qilingan, xohlagan kasblari bilan shug'ullanishlariga ruxsat berilgan va ularga hech qanday tazyiq o'tkazilmagan: “X asrda zardushtiylik nasroniylik va yahudiylik dini bilan bir qatorda himoya ostiga olingan din sifatida so'zsiz e'tirof etilgan edi”⁸. Ular xalifalikning davlat tuzumi va idorasi, madaniyati, ilm-fani, iqtisodiyoti, qishloq-xo'jaligi va moliya sohalarining rivojiga hissa qo'shishgan. Qadimgi Yunon, Xitoy, Hindiston, Bobil madaniyatining ilg'or ilm-fan yutuqlari va zardushtiylik manbalarini tarjima qilish masalasi xalifalik tomonidan rag'batlantirilgan, buni Bog'dodda tashkil etilgan "Bayt ul-Hikma" faoliyati misolida yaqqol ko'rish mumkin.

⁶ Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Al-Buxoriy “Al Jomi' as Sahih”. 2. T.: 1997. B.103.

⁷ Zohidiy A. “Turkistonda o'rta asrlar arab-musulmon madaniyati”. - T.: 1993. B.21.

⁸ Mes A. “Musulmanskaya Renessans”. - M.: 1966. – B. 39.